

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna	
BREND POZITSİYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна	
KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi	



KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI

Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
Email: intizorsherzodovna@gmail.com
ORCID: 0009-0006-7646-0750

Annotatsiya. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish jarayonida ayollar tadbirkorligining iqtisodiy va ijtimoiy o'rni baholangan. Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining SIAT bazasi, UNDP, Jahon banki va IFCning ochiq ma'lumotlari, nazariy bazasini esa xalqaro taqriz qilinadigan jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar tashkil etadi. 2018–2025-yillarda yakka tartibdagi tadbirkor ayollar sonining dinamikasi, ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning tarmoq hamda hududiy tarkibi, shuningdek, kichik biznesning YAIM va bandlikdagi ulushi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, ayollar tadbirkorligi, iqtisodiy faollik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, mikrofirma, bandlik, moliyaviy inklyuziya, gender tengligi, xizmatlar sohasi, inklyuziv iqtisodiy o'sish.

Аннотация. Оценена экономическая и социальная роль женского предпринимательства в процессе развития малого бизнеса в Узбекистане. Эмпирическую базу исследования составляют данные базы SIAT Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, открытые данные ПРООН, Всемирного банка и IFC, а теоретическую базу — научные статьи, опубликованные в международных рецензируемых журналах. Проанализированы динамика численности женщин — индивидуальных предпринимателей за 2018–2025 годы, отраслевая и территориальная структура малых предприятий и микрофирм, возглавляемых женщинами, а также доля малого бизнеса в ВВП и занятости.

Ключевые слова: малый бизнес, женское предпринимательство, экономическая активность, индивидуальное предпринимательство, микрофирма, занятость, финансовая инклюзия, гендерное равенство, сфера услуг, инклюзивный экономический рост.

Abstract. The economic and social role of women's entrepreneurship in the development of small businesses in Uzbekistan is assessed. The empirical basis of the study comprises data from the SIAT database of the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, as well as open data from UNDP, the World Bank, and IFC, while the theoretical basis consists of scientific articles published in international peer-reviewed journals. The dynamics of the number of women individual entrepreneurs during 2018–2025, the sectoral and territorial structure of women-led small enterprises and microfirms, as well as the share of small businesses in GDP and employment, are analyzed.

Keywords: small business, women's entrepreneurship, economic activity, individual entrepreneurship, microfirm, employment, financial inclusion, gender equality, services sector, inclusive economic growth.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobat muhitini shakllantirish va aholi daromadlarini oshirishning asosiy institutsional tayanchlaridan biridir. Ushbu tizimda ayollar tadbirkorligining kengayishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda bandlikni ta'minlash, oilalar farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, inson kapitalidan to'liq foydalanish va gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayolning tadbirkorlik subyekti sifatida bozorga kirishi nafaqat uning shaxsiy daromadiga, balki oilaviy qarorlar, iste'mol, ta'limga investitsiyalar va mahalliy bandlikka ham ko'paytiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning salmog'i yuqori. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,2 foizni, jami bandlikdagi ulushi esa 74,9 foizni tashkil etgan [10; 11]. Bu kichik biznesning nafaqat qiymat yaratish, balki mehnat bozorini barqarorlashtirishdagi rolini ham ko'rsatadi. Shu fonda ayollar tadbirkorligining faollashuvi kichik biznesning sifat tarkibini yaxshilash,



yangi xizmatlar va ishlab chiqarish yo'nalishlarini shakllantirish hamda iqtisodiy faollikning hududlar bo'yicha keng tarqalishiga xizmat qilishi mumkin.

Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha 2024-yilgi Country Gender Assessment hisobotida ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklar darajasiga yaqinlashsa, mamlakat milliy daromadi taxminan 29 foiz yuqori bo'lishi mumkinligi qayd etilgan [13]. UNDP esa 2024-yilda O'zbekistonda tadbirkorlikning turli shakllarida faoliyat yuritayotgan ayollar sonini 2,1 million deb baholaydi va bu 2020-yilga nisbatan qariyb yetti baravar ko'p ekanini ko'rsatadi [12]. Biroq ushbu ko'rsatkich keng tushunchani qamrab oladi; rasmiy SIAT ma'lumotlaridagi "yakka tartibdagi tadbirkor ayollar" alohida statistik kategoriya hisoblanadi. Shu sababli statistik toifalar aralashtirilmagan holda tahlil qilindi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda kichik biznesdagi ayollar tadbirkorligining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini baholash, tarmoq va hududiy xususiyatlarini ochib berish hamda rivojlanishni jadallashtiruvchi ilmiy-amaliy yo'nalishlarni asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollar tadbirkorligi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda institutsional muhit, resurslardan foydalanish imkoniyati, biznesning o'sishi hamda genderga xos ijtimoiy omillar asosiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida shakllangan.

Welter va Smallbone (2008) O'zbekiston misolida ayollar tadbirkorligini institutsional nazariya asosida o'rganib, formal va informal institutlar, jumladan, oilaviy munosabatlar va gender rollari biznesning shakllanishi hamda rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [1].

Brush, de Bruin va Welter (2009) an'anaviy "market-money-management" modelini kengaytirib, unga "motherhood" va "meso/macro environment" omillarini qo'shgan "5M" modelini taklif etgan [2]. Ushbu yondashuv ayollar biznesida moliyaviy resurslar bilan bir qatorda oilaviy va institutsional muhitning ahamiyatini asoslaydi.

Minniti va Naudé (2010) ayollar tadbirkorligining determinantlari mamlakatlarning iqtisodiy va institutsional sharoitlariga bog'liqligini ko'rsatib, rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlagan [3].

Jennings va Brush (2013) ayollar biznesini faqat firma hajmi va moliyaviy natijalar bilan baholash yetarli emasligini, bandlik, barqarorlik va ijtimoiy natijalarni ham hisobga olish lozimligini asoslagan [4]. Xorijlik tadqiqotchilar Cytlak va Mamadaminova (2023) O'zbekistonda ayollar tadbirkorligining rivojlanishini tahlil qilib, biznes bilimlari, tajriba va mavjud qo'llab-quvvatlash dasturlari to'g'risidagi xabardorlikni yanada oshirish muhimligini ko'rsatgan [5].

Saito va hammualiflari (2026) O'zbekistondagi ayol turizm tadbirkorlari misolida biznes muvaffaqiyatida professional tarmoqlar, resurslarni safarbar qilish va gender normalariga moslashish muhimligini aniqlagan [6]. Mazkur tadqiqotlar ayollar tadbirkorligining rivojlanishi nafaqat moliya va bozor imkoniyatlari, balki institutsional muhit, boshqaruv kompetensiyalari, oilaviy majburiyatlar va ijtimoiy tarmoqlar bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbekiston bo'yicha zamonaviy statistik ma'lumotlar asosida ayollar biznesining dinamikasi, tarmoq va hududiy konsentratsiyasini kompleks baholashni yanada chuqurlashtirish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining SIAT ochiq ma'lumotlar bazasi va rasmiy press-relizlari, UNDPning 2025-yilda e'lon qilingan "Women's Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and Recommendations" hisobotidagi ma'lumotlar, Jahon bankining 2024-yilgi Country Gender Assessment hisobotidagi ko'rsatkichlar hamda IFCning kichik biznes va ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish bo'yicha ochiq axborotlari tashkil etdi [7–14]. Internetdagi ochiq manbalardagi ma'lumotlar 2026-yil 29-avgust holatiga ko'ra tekshirildi.

Tadqiqotda dinamik qatorlar tahlili, statistik guruhlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil va iqtisodiy interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Yakka tartibdagi tadbirkor ayollar sonining yillik o'sishi $G_t = (X_t/X_{t-1} - 1) \times 100$ formulasi bilan, 2018–2025-yillar uchun o'rtacha yillik o'sish esa $CAGR = (X_{2025}/X_{2018})^{(1/7)} - 1$ formulasi asosida hisoblandi. Tarmoq va hududiy tarkibdagi ulush $S_i = x_i/\Sigma x \times 100$ formulasi bilan aniqlandi.

Metodologik jihatdan "ayol tadbirkor" tushunchasining manbalarda turlicha qamrovga egaligi inobatga olindi. SIAT "yakka tartibdagi tadbirkor ayollar"ni soliq ma'lumotlari asosida alohida hisoblaydi; Milliy statistika qo'mitasining boshqa ko'rsatkichlari ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarni qamrab oladi; UNDPning 2,1 mln ko'rsatkichi esa tadbirkorlikning kengroq shakllarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ushbu qatorlar bevosita bir-birining o'rnini bosuvchi ko'rsatkichlar sifatida emas, balki turli segmentlarni tavsiflovchi indikatorlar sifatida talqin qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi 1-jadvalga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkor ayollar soni 2018-yildagi 69 756 nafardan 2025-yilda 129 578 nafarga yetgan. Mutlaq o'sish 59 822 nafarni, umumiy nisbiy o'sish esa 85,8 foizni tashkil etadi. Yetti yillik davr uchun CAGR qariyb 9,25 foiz bo'lib, ayollarning biznesga kirishidagi o'rta muddatli trend barqaror va yuqori ekanini ko'rsatadi.

1-jadval.
O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkor ayollar soni, 2018–2025-yillar¹

Yil	Yakka tartibdagi tadbirkor ayollar, nafar	Yillik o'sish, %
2019	75 295	7,9
2020	81 703	8,5
2021	85 634	4,8
2022	99 307	16,0
2023	102 802	3,5
2024	121 324	18,0
2025	129 578	6,8

O'sish sur'atlari turli davrlarda o'ziga xos dinamikani namoyon etgan: 2022-yilda 16,0 foiz, 2024-yilda 18,0 foiz o'sish kuzatilgan, 2023-yilda esa o'sish sur'ati 3,5 foizni tashkil etgan. Ushbu dinamikani qo'llab-quvvatlash dasturlari, ro'yxatdan o'tish va soliq rejimlaridagi o'zgarishlar, bozor konyunkturasi hamda pandemiyadan keyingi iqtisodiy moslashuv bilan bog'liq holda izohlash mumkin. Mavjud agregat ma'lumotlar asosida ushbu omillarning alohida sababiy ta'sirini yanada chuqurroq aniqlash uchun mikro darajadagi panel yoki so'rov ma'lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 43 860 tani tashkil etgan va bir yil davomida 2 611 taga yoki 6,3 foizga ko'paygan [8]. Tarmoq tarkibida xizmatlar 39,3 foizni, savdo esa 39,1 foizni tashkil etadi. Demak, faqat ushbu ikki yo'nalishning jami ulushi 78,4 foizga teng. Sanoat hisssasi 12,5 foiz bo'lib, ayollar biznesining yuqori kapital va texnologiya talab qiluvchi segmentlarga kirishini yanada kengaytirish uchun sezilarli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

2-jadval.
Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat bo'yicha tarkibi, 2025-yil 1-yanvar²

Faoliyat yo'nalishi	Korxonalar soni	Jami tarkibidagi ulushi, %
Xizmatlar	17 239	39,3
Savdo	17 161	39,1
Sanoat	5 464	12,5
Boshqa yo'nalishlar	3 996	9,1
Jami	43 860	100,0

Xizmatlar va savdoning yuqori ulushi iqtisodiy jihatdan tushunarli: ushbu faoliyat turlari ko'pincha kichikroq boshlang'ich kapital, tezroq pul aylanishi, moslashuvchan ish vaqti va mahalliy bozorga yaqinlik bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, tarmoq tarkibini yanada diversifikatsiya qilish biznesning o'rtacha unumdorligi va eksport salohiyatini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shu bois ayollar tadbirkorligini ishlab chiqarish, qayta ishlash, axborot texnologiyalari, professional B2B xizmatlar, logistika va elektron tijorat kabi yuqori qo'shilgan qiymatli yo'nalishlarga diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning mahsulot sotishdan olgan sof tushumi 47,7 trln so'mni tashkil etgan va avvalgi davrga nisbatan qariyb 10,1 trln so'mga oshgan [9]. Bazaviy 37,6 trln so'mga nisbatan bu taxminan 26,9 foizlik nominal o'sishni tashkil etadi. Ushbu natija korxonalar sonining 6,3 foizlik o'sishidan yuqori bo'lib, nominal tushum dinamikasi ijobiy ekanini ko'rsatadi. Real unumdorlik bo'yicha yanada aniq xulosa chiqarish uchun inflyatsiya, korxonalar tarkibi va bandler soni bo'yicha deflyatsiyalangan mikro ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Hududiy tahlil ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning muayyan hududlarda yuqori darajada jamlanganini ko'rsatadi: Toshkent shahri, Toshkent

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi SIAT [7] ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2 Manba: Milliy statistika qo'mitasi [8; 9] ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



va Samarqand viloyatlari jami korxonalarining 50,9 foizini tashkil etadi. Bu holat bozor sig'imi, moliyaviy va konsalting infratuzilmasi, logistika hamda raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining muhimligini tasdiqlaydi.

3-jadval.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimoti³

Hudud	Korxonalar soni	Ulushi, %
Toshkent shahri	12 814	29,2
Toshkent viloyati	5 598	12,8
Samarqand viloyati	3 905	8,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 866	6,5
Xorazm viloyati	2 673	6,1
Surxondaryo viloyati	2 656	6,1
Buxoro viloyati	2 434	5,5
Farg'ona viloyati	2 035	4,6
Navoiy viloyati	2 025	4,6
Qashqadaryo viloyati	1 879	4,3
Jizzax viloyati	1 366	3,1
Sirdaryo viloyati	1 252	2,9
Andijon viloyati	1 227	2,8
Namangan viloyati	1 130	2,6

Natijalar Brush, de Bruin va Welterning 5M modeli [2], shuningdek, Welter va Smallbonening institutsional yondashuvi [1] bilan mos keladi. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyalashtirish, bozorga kirish, boshqaruv kompetensiyalari va ijtimoiy muhit o'zaro bog'liq omillar hisoblanadi. UNDP [12] ham moliyaviy imkoniyatlarni yanada kengaytirish va oilaviy yuklamalarni maqbullashtirish ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari ekanini qayd etadi.

Shu asosda beshta ustuvor yo'nalish ajratiladi: moliyaviy inklyuziyani kengaytirish; sanoat, IT, agroqayta ishlash va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda diversifikatsiyani kuchaytirish; tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish; hududiy biznes infratuzilmasini takomillashtirish; qo'llab-quvvatlash samaradorligini biznesning yashovchanligi, tushumi, bandlik yaratishi, eksporti va investitsiyalarni jalb etishi orqali baholash. Davlat siyosatida ayollarning yuqori iqtisodiy salohiyatga ega biznes subyektlari sifatidagi faoliyatini izchil qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot O'zbekistonda ayollar tadbirkorligining kichik biznes tizimidagi roli ortib borayotganini ko'rsatdi. 2018–2025-yillarda yakka tartibdagi tadbirkor ayollar soni 69,8 ming nafardan 129,6 ming nafarga oshib, umumiy o'sish 85,8 foizni, o'rtacha yillik o'sish esa 9,25 foizni tashkil etdi. Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 43,9 mingtaga yetgan bo'lib, ularning 78,4 foizi savdo hamda xizmatlar sohasida faoliyat yuritadi. Bu holat ayollarning biznesga faol kirib kelayotganini hamda tarmoq tarkibini yanada diversifikatsiya qilish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Kichik biznesning 2025-yilda YAIMdagi 52,2 foizlik va bandlikdagi 74,9 foizlik ulushi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni umumiy iqtisodiy siyosatning muhim qismi sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi. Ayollar biznesining keyingi o'sish bosqichi moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, biznesni masshtablash, sanoat va yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar yo'nalishlariga diversifikatsiya qilish, raqamlashtirish, eksportni rivojlantirish hamda hududiy biznes infratuzilmasini takomillashtirish bilan bog'liq.

Ilmiy-amaliy nuqtai nazardan, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning natijaviy modelini "tadbirkorlar soni" indikatoridan "barqaror va o'suvchi bizneslar sifati" indikatorlariga o'tkazish taklif etiladi. Bunday yondashuv ayollar tadbirkorligini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash vositasidan kichik biznes unumdorligini, xususi sektor raqobatbardoshligini va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik resursga aylantirish imkonini beradi.

3 Manba: Milliy statistika qo'mitasi [8] ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Welter F., Smallbone D. Women's entrepreneurship from an institutional perspective: the case of Uzbekistan // International Entrepreneurship and Management Journal. — 2008. — Vol. 4, No. 4. — P. 505–520. — DOI: 10.1007/s11365-008-0087-y.
2. Brush C. G., de Bruin A., Welter F. A gender-aware framework for women's entrepreneurship // International Journal of Gender and Entrepreneurship. — 2009. — Vol. 1, No. 1. — P. 8–24. — DOI: 10.1108/17566260910942318.
3. Minniti M., Naudé W. What Do We Know About The Patterns and Determinants of Female Entrepreneurship Across Countries? // The European Journal of Development Research. — 2010. — Vol. 22. — P. 277–293. — DOI: 10.1057/ejdr.2010.17.
4. Jennings J. E., Brush C. G. Research on Women Entrepreneurs: Challenges to (and from) the Broader Entrepreneurship Literature? // Academy of Management Annals. — 2013. — Vol. 7, No. 1. — P. 663–715. — DOI: 10.5465/19416520.2013.782190.
5. Cytlak I., Mamadaminova N. Empowering women, empowering nations: women's entrepreneurship in Uzbekistan // Rocznik Pedagogiczny. — 2023. — Vol. 46. — P. 117–135. — DOI: 10.14746/rp.2023.46.8.
6. Saito N., Sano K., Ruhanen L., Shirasaka S. Reconceptualizing women tourism entrepreneurs' agency: a case from Urban Uzbekistan // Asia Pacific Journal of Tourism Research. — 2026. — Vol. 31, No. 7. — P. 1408–1438. — DOI: 10.1080/10941665.2026.2653507.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. SIAT: Number of individual entrepreneurs (women) [Elektron resurs]. — Yangilangan: 29.06.2026. — URL: <https://siat.stat.uz/data/4194/?lang=en>.
8. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. The number of small enterprises and microfirms headed by women increased by 6.3% [Electronic resource]. — 21.08.2025. — URL: <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/63309-ajollar-ra-barligidagi-kichik-korkhona-va-mikrofimlar-soni-6-3-ga-oshdi-4>.
9. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. In which sector are women entrepreneurs most active? [Electronic resource]. — 25.08.2025. — URL: <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/63390-tadbirkor-ajollar-k-pro-ajsi-so-ada-faoliyat-olib-bormo-da-4>.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. SIAT: Share of small businesses in GDP [Elektron resurs]. — URL: <https://siat.stat.uz/data/420/?lang=en>.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. SIAT: Share of small businesses in total employment [Elektron resurs]. — URL: <https://siat.stat.uz/data/274/?lang=en>.
12. United Nations Development Programme. Women's entrepreneurship in Uzbekistan: assessment and recommendations [Electronic resource]. — 2025. — 23.04.2025. — URL: <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/womens-entrepreneurship-uzbekistan-assessment-and-recommendations>.
13. World Bank. Uzbekistan Country Gender Assessment Report [Electronic resource]. — 2024. — URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/country-gender-assessment-2024>.
14. International Finance Corporation. IFC and DAVR-BANK Partner to Boost Financing for Small Businesses and Women Entrepreneurs in Uzbekistan [Electronic resource]. — 2025. — 25.09.2025. — URL: <https://www.ifc.org/en/pressroom/2025/ifc-and-davr-bank-partner-to-boost-financing-for-small-businesses-and-women-entrep>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>